Yuqorichirchiq tumanidan ko’za topildi

2021-yil 14-aprel kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Madaniy meros departamenti xodimlari hamkorlikda Toshkent viloyatining Yuqorichirchiq tumanidagi arxeologik yodgorliklarni qayta xatlovdan o’tkazish ishlari olib borildi. O’rganishlar paytida ushbu tumanning Surankent MFY, Yangi hayot mahallasi, Mehribon ko’chasida alohida tepalik ko’rinishida saqlanib qolgan Sigirtepa arxeologik yodgorligining janubi-sharqiy tomonidagi tuproqlar orasida singan holatdagi sopol idishga duch kelindi. Ushbu sopol idish tuproqdan ajratib olingach, tana qismi tuxumsimon bo’g’zi uzun, bir uchi bo’g’zining tepasiga, ikkinchi uchi keng tana qismiga ulangan “Г” shaklidagi qalin dastali ko’za ekanligi aniq bo’ldi. Ko’za o’rganilganda bo’yining saqlangan qismi 48 sm.ni, og’zining diametri – 10 sm.ni, yassi shaklidagi tagining diametri – 15 sm.ni, uzun bo’g’zining balandligi esa – 15 sm.ni tashkil qildi.

Bu ko’za kulolchilik charxi yordamida yasalgan bo’lib, uning yelkasiga aylanasi bo’ylab taraqsison moslama bilan yonma-yon to’rt qator botiq chiziq tushirib bezak berilgan. Ko’za xumdorda pishirilgandan so’ng jigarrang tusga kirgan. Pishirilib tayyor bo’lgan so’ng uning sirtiga qizil rangdagi angob bir tekisda surtib chiroy berilgan.

Tadqiqotlarda bunga o’xshash qizil rangda angoblangan, tanasi tuxumsimon, bo’g’zi uzun ko’zalar Toshkent vohasida aniqlanib, miloddan oldingi II asrdan – milodiy VI asrning birinchi yarmigacha bo’lgan davr bilan davrlashtirilgan Qavunchi madaniyati nomi berilgan kulolchilik buyumlari majmuasida ko’plab uchraydi. Ammo bu madaniyatga oid ko’zalar mo’rtligi, charx yordamisiz, qo’lda yasalganligi, dastasining kichikroqligi bilan Yuqorichirchiq tumanidan topilgan ko’zadan farq qiladi. Topilgan ushbu ko’za o’zining charxda bejirim qilib yasalganligi, yelkasiga taraqsimon asbobda aylanasiga tirnab bezak berilganligi, dastasining shakli va yuksak did bilan ishlanganligiga ko’ra O’zbekistondagi ko’plab yodgorliklardan topib o’rganilgan IX-XII asrlarga oid ko’zalarga o’xshab ketadi. Shularga asoslanib yangi topilgan ko’zani qadimiy hunarmadchilik an’analarining takomillashuvi natijasida IX-XII asrlarda ishlab chiqarilganligini, u topilgan yodgorlik ham shu asrlarga oidligini taxmin qilish mumkin.

Ushbu ko’zani kelajakda Toshkent muzeyiga topshirish ko’zda tutilgan. Chunki, o’zbek xalqining uzoq vaqtlar davomida avloddan-avlodga o’tib kelgan o’ziga xos hunarmandchilik an’analarini ko’rsatib bera oladigan mazkur topilma muzey ko’rgazmalari orasida o’zining munosib o’rnini topadi va muzeyga tashrif buyuruvchi tomoshabinlarda katta qiziqish o’yg’otadi deb o’ylaymiz.

Dilmurod NORMURODOV,

Fanlar akademiyasi Tarix instituti bo’lim boshlig’i